



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



### BOSHLANG‘ICH SINFLARDA HUSNIXATGA O‘RGATISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

**Ismoilov Avazbek Sherma o'g'li**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi*

**Temirova Muqaddas**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda husnixatga o‘rgatishda zamonaviy metodlardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi yoritilgan. Zamonaviy texnologiyalar, innovatsion metodlar va interfaol yondashuvlarning o‘quvchilarining yozuv madaniyatini shakllantirishga ta’siri tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** husnixat, boshlang‘ich ta’lim, zamonaviy metodlar, pedagogik texnologiyalar, interfaol ta’lim.

## KIRISH

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida husnixatga o‘rgatish nafaqat yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish, balki o‘quvchilarining estetik didi, tartib-intizomi va mayda motorikasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Chiroyli va ravon yozish malakasi bolaning tafakkuri, mantiqiy fikrlashi va xotirasini mustahkamlashda muhim omillardan biridir. Shuningdek, yozuv texnikasini puxta egallagan o‘quvchilar kelajakda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham ustunlikka ega bo‘ladilar. An’anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish o‘quvchilarining yozuv sifatini yaxshilash va ularda yozishsga bo‘lgan qiziqishni oshirish imkonini beradi.

## ASOSIY QISM

Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), interfaol ta’lim vositalari, raqamli texnologiyalar va o‘yin elementlari orqali husnixat darslarini yanada samarali va qiziqarli tashkil etish mumkin. Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda husnixatni o‘rgatishda qo‘llanilayotgan innovatsion metodlarning samaradorligini o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu maqolada zamonaviy metodlardan foydalanishning afzalliklari, pedagogik jarayondagi roli hamda amaliyotga tatbiq etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida husnixatga o‘rgatishning dolzarbligi yosh o‘quvchilarda yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘liq. Yozish faqat





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



harflarni yozib chiqishdan iborat emas, balki bolaning o'ylash va fikrlash jarayonini rivojlantirishga ham qaratilgan. Chiroyli yozish nafaqat estetik tomondan, balki o'quvchining ma'naviy va intellektual rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Husnixatning boshlang'ich sinflarda o'rganilishi o'quvchilarda diqqatni jamlash, qo'l motorikasi va xotirani rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, husnixatga o'rgatish o'quvchilarning tafakkuri va til madaniyatini shakllantirishda, ularni ilmiy fikrlashga yo'naltirishda, nutqning ravon va aniq bo'lishida ham muhim rol o'ynaydi. Harflar va so'zlarni yozish orqali bolalar o'z fikrlarini ifodalash, ularni tartibga solish va boshqalarga tushunarli tarzda taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonida o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash va ularni o'zlashtirish darajasini oshirishga yordam beradi. Husnixat darslarida interfaol doskalar, grafik planshetlar, raqamli qurilmalar va maxsus mobil ilovalar orqali o'quvchilarga yozish ko'nikmalarini shakllantirishda yordam berish mumkin. Bu vositalar o'quvchilarning diqqatini saqlashga, ularni yozuv jarayoniga jalg qilishga xizmat qiladi. Masalan, grafik planshetlar yordamida o'quvchilar harflarni yozish amaliyotini takrorlashadi, bu esa ularning motorikasi va husnixatdagi aniqligini oshiradi. Gamifikatsiya yoki o'yin elementlarini o'quv jarayoniga kiritish yozuv darslarini qiziqarli va interfaol qilishning samarali usulidir. O'yinlar orqali o'quvchilar darsda faol qatnashadilar va yozuvga bo'lgan qiziqishlari ortadi. O'quvchilar turli xil vazifalarni bajarishda o'yin tarzida harakat qilishadi, bu esa ular uchun darsni o'rganishni qiziqarli va motivatsion qiladi. Misol uchun, "Yozish sayohati" o'yinida o'quvchilar biror harf yoki so'zni tezda va to'g'ri yozishlari kerak bo'ladi, shunda ular turli darajalarda mukofotlar oladi.

Har bir o'quvchi o'ziga xos temponi va uslubni tanlaydi, shuning uchun differensial yondashuv o'quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirilgan metodlarni qo'llashni talab qiladi. Masalan, ba'zi o'quvchilar tez o'zlashtiradilar, boshqalari esa qo'shimcha yordamga muhtoj. Bu holatda, o'qituvchi har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olib, individual topshiriqlar va mashqlar tayyorlaydi. Shuningdek, o'quvchilarning yoshi, qobiliyati va rivojlanish darajalariga qarab, husnixatga o'rgatishda farqli metodlar ishlataladi.

Klaster usuli yordamida o'quvchilar harflarni va so'zlarni bir-biriga bog'lash orqali o'zlarining ijodiy fikrlashlarini rivojlantiradilar. Bu usul, ayniqsa, o'quvchilarning so'zlarni yozishdan ko'ra, ularni ma'noli guruhlarga ajratish va bog'lash qobiliyatini oshirishda samarali. Klaster usuli yordamida o'quvchilar tasvirlar, diagrammalar va boshqa vositalar orqali yozish ko'nikmalarini mustahkamlashadi.

O'quvchilarda husnixatni yana takomillashtirish yana bir qancha yollari mavjud. Masalan, husnixati yomon bo'lgan o'quvchilar uchun "husnixatingni o'zgartir" nomli





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



to'garak tashkil qilish lozim. Bu to'garakda, birinchidan darsda o'rganolmagan husnixatni organib olishadi, ikkinchidan o'qituvchining ozi uchun ham foydali. O'quvchilarning yozuvini ko'ribganda oqituvchi o'zida qandaydir o'zining kasbiga nisbatan ishtiyoqi ortadi. Bu esa uni o'z ustida yanada ko'proq ishslashni talab etadi.

**Xulosa:** Zamonaviy metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarni husnixatga o'rgatishda olingan natijalar aniq ko'rindi. Tajriba-sinov darslari va amaliy mashg'ulotlarda interfaol texnologiyalar, o'yin metodlari va differensial yondashuvlarning samaradorligi o'quvchilarning yozuv tezligi va sifatida sezilarli yaxshilanishlarga olib kelgan. Misol uchun, grafik planshetlardan foydalanish o'quvchilarning qo'l motorikasini yaxshilashga yordam berdi, natijada ular tezroq va to'g'ri yozishni o'rgandilar. O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi oshdi. Raqamli vositalar yordamida o'quvchilar o'z yozuvlarini darhol ko'rib, ularda qanday xatoliklar borligini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa, o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va o'zlashtirish jarayonida mustahkamlanishiga yordam berdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. "Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayoni: metodik tavsiyalar". Toshkent, 2021.
3. Ziyomuhamedov A. "Boshlang'ich sinflarda yozuv malakalarini shakllantirish". Toshkent, Fan, 2019.
4. Hasanboyeva O., Jo'rayev A. "Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar". Toshkent, 2022.
5. Jalolov J. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: nazariya va amaliyat". Toshkent, O'qituvchi, 2020.
6. Xodjayev U. "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularning ta'limdagi roli". Toshkent, 2021.

